

## Topshiriqlar:

1. Quyidagi masalalarni ishleng. **(Botanika, o`simliklar fiziologiyasi va matematika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

1. Sebarga o`simligi barg hujayrasida bir vaqtning o`zida airob va quyosh energiyasi hisobiga 1674 molekula ATF sintezlangan bo`lsa.

A) quyosh energiyasi hisobiga sintezlangan ATF miqsorini aniqlang.

B) Aerob sharoitdagi sintezlangan ATF miqdorini aniqlang

C) Quyosh energiyasi hisobiga sintezlangan ATF necha molekula glyukoza sintezga yetadi?

2. Terak daraxtini ostki barg og`izchalari soni ustki barg og`izchalari sonidan, 2,5 marta ko`p, bargidagi jami loviyasimon hujayralar esa, 700 tani tashkil qiladi. Agar chinor daraxtini har bir ostki barg og`izchasi bir kecha kunduzda 2 l suv bug`latsa, va 5 kunda jami 3250 l suv bug`latsa, ustki barg ogizchalarini har biri bir kecha kunduzda qancha suv bug`latganligini toping. (K.Tojiboyev, 2020)

2. Barglarning ekologik sharoitlarga moslashuvi, ularning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri haqida taqdimot tayyorlang. Taqdimotingizda ilmiylik va ommaboplik aks etsin. **(Botanika, ekologiya va informatika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

3. Dunyodagi eng uzun barg, eng kichik barg, hasharotxo`r barg va eng ko`p yashaydigan bargga ega bo`lgan o`simliklar tarqalgan hududlarni bo`yang. **(Botanika, ekologiya va geografiya fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**



**4. Quyidagi keys savoliga yechim toping. (Botanika, matematika va mantiq fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).**

Quyidagi ikkita o`simlik bargida jami 2160 ta loviyasimon hujayralar joylashganligi va ulardagi barg og`izchalar farqi 170 ta ekanligi ma`lum bo`lsa, ikkinchi o`simlikda nechta barg og`izchasi joylashganligini aniqlang. (G.S.Tursinbayeva, 2018)



1-o'simlik (x)



2-o'simlik (y)